DISKURS VA MATN TUSHUNCHALARINING DIXOTOMIK HAMDA SINONIMIK TALQINLARI: LINGVISTIK YONDASHUVLAR TAHLILI

D. X. Madazizova
FarDU Chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya:
Maqolada zamonaviy tilshunoslikdagi “diskurs” va “matn” tushunchalarining o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Xorijiy va rus tilshunoslarining mazkur tushunchalarga oid qarashlari qiyosiy o‘rganilib, ularning dixotomik va sinonimik talqinlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida diskursning matndan kengroq hodisa ekani, u lingvistik birliklar bilan bir qatorda ekstralingvistik, pragmatik va kognitiv omillarni ham qamrab olishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *diskurs, matn, kommunikatsiya, kognitiv jarayon, ekstralingvistik omillar, pragmatika, nutq faoliyati.*

KIRISH

Tilshunoslikda “diskurs” atamasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo‘llanila boshladi va qisqa vaqt ichida zamonaviy lingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, “diskurs” va “matn” tushunchalarining o‘zaro munosabati masalasi ham ko‘plab ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu tushunchalarni bir-biridan farqlasa, boshqalari ularni sinonim hodisalar sifatida talqin qiladilar. Natijada diskurs va matnning mohiyatini aniqlash hamda ularning chegaralarini belgilash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Diskurs va matnning o‘zaro munosabatiga oid qarashlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: dixotomik va sinonimik yondashuvlar. Dixotomik yondashuv tarafdorlari diskurs va matnni ikki alohida hodisa sifatida talqin qiladilar. Jumladan, J. Sinkleyir matnni tilning mavhum birligi, diskursni esa ushbu birlikning nutqdagi voqelanishi deb izohlaydi. Teun van Deyk ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlab, matnni tahlil obyektiga aylangandagina diskurs sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. D. Tannen esa matnni diskursning bir aspekti sifatida baholaydi.

Bunga qarama-qarshi ravishda O. Kamenskaya va O. Gordeeva diskurs va matnni sinonim tushunchalar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, mazkur atamalar bir xil hodisani ifodalaydi va amaliy jihatdan bir-birining o‘rnida qo‘llanishi mumkin. Biroq zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aksariyati diskurs va matnni tenglashtirishdan ko‘ra, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratishga intiladi.

1970-yillarning oxirlaridan boshlab diskurs tahlilining rivojlanishi bilan bu ikki tushunchani farqlashga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Ayniqsa, Teun van Deykning ishlari ushbu masalada muhim ahamiyat kasb etdi. Olimning ta’kidlashicha, diskurs real kommunikativ jarayon bilan bog‘liq bo‘lsa, matn til tizimining mavhum mahsuli hisoblanadi. Diskurs nutqiy faoliyatning amalga oshirilishi, matn esa ushbu faoliyatning lingvistik natijasidir.

Van Deyk diskursni keng ma’noda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida muayyan zamon va makonda yuz beradigan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qiladi. Bunday kommunikativ faoliyat og‘zaki yoki yozma shaklda amalga oshishi mumkin.

Diskurs va matn o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, diskurs nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham o‘z ichiga oladi. Jumladan, muloqot ishtirokchilarining maqsadi, kommunikativ vaziyat, psixologik holat, madaniy muhit, mimika va imo-ishoralar diskursning tarkibiy qismlari sanaladi. Matn esa, asosan, til tizimi doirasida o‘rganiladigan mavhum lingvistik mahsulotdir.

E.S. Kubryakova diskurs va matn munosabatiga kognitiv nuqtayi nazardan yondashadi. Uning fikricha, diskurs nutq yaratish bilan bog‘liq kognitiv jarayon bo‘lsa, matn ushbu jarayonning yakuniy natijasidir. Bu ta’rif diskursning dinamik, matnning esa statik xususiyatini ochib beradi. Shuningdek, olima diskurs va matnni sinonim sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emasligini ta’kidlaydi.

S. Suvorova ham diskursni murakkab kommunikativ hodisa sifatida baholab, uning tarkibiga lingvistik birliklar bilan bir qatorda kommunikativ maqsadlar, ijtimoiy rollar, pragmatik munosabatlar va boshqa ekstralingvistik parametrlarni kiritadi. Uning fikricha, mazkur omillarsiz matn diskurs darajasiga ko‘tarila olmaydi.

M.L. Makarov diskursni nutq faoliyati jarayoni, matnni esa ushbu faoliyat natijasida yaratilgan va yozma shaklda qayd etilgan mahsulot sifatida izohlaydi. Biroq bu talqinda Kubryakova ta’kidlagan kognitiv jihat yetarlicha yoritilmagan. A. Bushev diskursni matnning muayyan tarixiy, madaniy va kommunikativ sharoitdagi talqini deb hisoblaydi. Bu yondashuv ham diskurs va matnning bir-biriga teng bo‘lmagan hodisalar ekanligini ko‘rsatadi. N.D. Arutyunova diskursga yanada kengroq ta’rif beradi. Uning fikricha, diskurs maxsus kontekstda yuzaga keladigan, pragmatik, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lgan izchil matndir. Diskurs tarkibida nutqning paralingvistik vositalari, ya’ni mimika, imo-ishora va boshqa noverbal belgilar ham muhim o‘rin egallaydi. K.F. Sedov esa diskursni inson muloqotining barcha muhim jihatlarini aks ettiruvchi ko‘p qirrali hodisa sifatida tavsiflaydi. Olim diskursni yaxlit nutqiy asar, kommunikativ faoliyat mahsuli, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanishining ko‘rsatkichi hamda nutq yaratish va uni tushunish mexanizmlarini mujassamlashtiruvchi tizim sifatida baholaydi. Shuningdek, diskurs ijtimoiy, madaniy va individual xususiyatlarni namoyon etuvchi hodisa ekanligini qayd etadi.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tilshunoslikda diskurs va matn munosabatiga nisbatan ikki asosiy yondashuv mavjud: sinonimik va dixotomik talqinlar. Biroq aksariyat zamonaviy tadqiqotchilar diskursni matndan kengroq va murakkabroq hodisa sifatida baholaydilar.

Diskurs o‘zida verbal (nutq, matn, dialog) hamda noverbal (kontekst, kommunikativ maqsad, madaniy muhit, psixologik holat, mimika va imo-ishoralar) komponentlarni birlashtiradi. U kommunikativ faoliyat jarayoni va natijasini ifodalasa, matn ushbu faoliyatning lingvistik mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli diskursni o‘rganishda lingvistik omillar bilan bir qatorda ekstralingvistik va kognitiv

jihatlarni ham hisobga olish zarur. Bu esa diskursning zamonaviy tilshunoslikdagi markaziy tushunchalardan biri sifatida ahamiyatini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Арутюнова Н.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: Советская энциклопедия,1990. – С. 136-137.
2. Бушев А.Б. Экономический кризис: Интерпретация в глобальных медиа. –М.: Твер, 2010. – С. 242.
3. Гордеева О.Н. Членение текста: структурно семантический и динамический подход.// Диалект текста: СПб. –М.: Питер. 1999. – С. 1-40.
4. Каменская О.Л. Текст и коммуникфция. –М.: Мир, 1990. – 152 с.
5. Кубрякова Е.С., Александрова О.В. Виды пространство текста и дискурса//Категоризация мира: Пространство и время. –М.: Диалог. МГУ, 1997. – С.19-20.
6. Макаров М. Л. Основи теории дискурса. –М.: Гнозис, 2003. – 280 с.
7. Седов К.Ф. Становление дискурсивного мышления языковой личности. Психо и социолингвистические аспекты. –Саратов, 1999. – С. 197.
8. Суворова С. Л. Феноменология исследования понятий “Дискурс”. Вестник Ю.Ур. Г.У. , №4 2012.
9. Teun van Dijk. https://youtu.be/sxfc-WJRKEM?si=H7ae1x1JZhKSJd73
10. Dijk Teun Van. Ideology. //A Multidisciplinary Approach. Sage publications. – London.Thousand Oaks.New Delhi, 1998. – 384 p.
11. Sinclair J. McH., Coulthart M. Towards an Analysis of Discourse: The English is used by Teachers and Pupils. –London: LSE:BMY, 1975. –P. 420.